

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining  
assistenti F.D.Ibragimovaning “Biotexnologiya” fakulteti 60840200 –  
Veterinariya farmatsevtikasi ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalariga  
“Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Oliy nerv faoliyat fiziologiyasi”  
mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘ulotiga**

**T A Q R I Z**

O‘tiladigan ma’ruza mashg‘uloti mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘lig‘icha mos keladi. Ma’ruza mashg‘ulotiningmatnida yangi pedagogik texnologoyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab ma’ruza mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyatva o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqtini ko‘rsatilgan.

Mavzu belgilangan reja asosida ketma-ketligiga rioya qilingan, ko‘rgazmali qurollardan o‘z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, ma’ruza mashg‘ulotda talabalar bilan muloqotda bo‘lib, mavzu yuzasidan fikrlar so‘ralib o‘tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandart testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to‘g‘ri yozilganligini inobatga olib assistent F.D.Ibragimovaning “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Oliy nerv faoliyat fiziologiyasi” mavzusini o‘quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

**Veterinariyailmiytadqiqot**

**Instituti “Vetsanitariyasi va  
urchitish patologiyasi”  
laboratoriysi mudiri v.f.d.**



A handwritten signature in blue ink, appearing to read "Kuldoshev O.U."

**Kuldoshev O.U**

A handwritten signature in blue ink, appearing to read "K. b. Gellef".

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining  
assistenti F.D.Ibragimovaning “Biotexnologiya” fakulteti 60840200 –  
Veterinariya farmatsevtikasi ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalariga  
“Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi”  
mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘ulotiga**

**T A Q R I Z**

Talabalarga “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan o‘qiladigan ma’ruza mavzusi o‘quv va ishchi o‘quv dasturiga mos keladi. Ma’ruza reja, tayanch iboralar va asosiy mazmundan iborat. Darsning maqsadi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda berilgan. Ma’ruza mashg‘ulotining asosiy qismi to‘liq yozilgan bo‘lib, darslikdan hamda o‘quv qo‘llanmadan foydalanilgan.

“Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan ma’ruza mashg‘ulotining taqdimotida “Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi” mavzusi batafsil yoritilgan bo‘lib, oliy nerv faoliyatining mohiyati, bosh miya yarim sharlari po’stlog‘i va uni o‘rganishda I.M.Sechenov, I.P.Pavlov larning xizmati haqida tushunchalar keltirilgan.

Bundan tashqari, ma’ruza materialida Determinizm, analiz va sintez, tuzilish tamoyillari, shartli va shartsiz reflekslar, ularning biologik ahamiyati, dinamik stereotip, nerv sistemasining tiplari va I.P.Pavlov ta’limotining chorvachilikdagi ahamiyati kabi fiziologik jarayonlar haqida tushunchalar berilgan bo‘lib, shular asosida mavzu mustahkamlangan. Yuqorida tushunchalardan kelib chiqqan holda, slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan, nazorat savollari, nostandard testlar va aqliy hujum savollari bilan boyitilgan.

Ma’ruza mashg‘uloti taqdimotida internet ma’lumotlaridan foydalanilgan bo‘lib, slaydlarda kiritilgan rangli rasmlar mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Assistant F.D.Ibragimovaning “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi” mavzusidagi ma’ruza mashg‘uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb o‘yayman, hamda uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi  
va patologik fiziologiya kafedrasi” mudiri,  
v.f.n., professori v.b.**

**R.F.Ro’ziqulov**